

GAZETA TILINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Yashnarbekova Shahzoda Ravshanovna

o‘qituvchi, UzDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqola yozma nutqqa doir bo‘lgan gazeta tilining lingvistik xususiyatlar, shakllari, uning tarixi hamda o‘zbek ommaviy axborot vositasida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, gazeta tiliga o‘z xissasini qo‘shegan olimlarning ishlari va o‘quv qo’llanmalar ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: gazeta, gazeta tili, gazeta shakllari, gazeta janrlari, gazeta publisistikasi tarmog‘i.

Gazeta tili – yozma nutqning nisbatan yangi ko‘rinishi bo‘lib, gazeta paydo bo‘lgandan keyin shakllangan turi.

Gazeta tili yozma nutq an’anasini - ma’lum darajada kitobiylilikni davom ettiradi va og‘zaki nutq xususiyatlarini o‘ziga singdira boradi. Ayni vaqtda og‘zaki nutq madaniyatining yuksalishida, yozma nutqqa ta’sir etishida muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi, adabiy tilning xalq nutqiga singib borishiga imkon hozirlaydi.

Ma’lumki o‘zbek tili tarixida XIX asrning oxiri va XX asr boshlari alohida o‘rin tutadi. Bu davrda o‘zbek adabiy tili so‘zlashuv tilidan uzoq bo‘lgan traditsion kitobiy eski o‘zbek tilidan ajralib chiqa boshladi. Bu davr hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanish davri edi. Bu davr adabiy tilde eski an’anaviy yozma nutqqa xos bo‘lgan yuqori uslubdan chetlashishi va xalq so‘zlashuv tiliga yaqinlashish davri edi. Bu davrda adabiy tilning so‘zlashuv tiliga yaqinlashish jarayoni, ayniqsa, “Turkiston viloyati gazeti” ning tilida yaqqol ko‘rindi.

Yozma nutqni xalq so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirishga 20-yillar gazetalari yetakchi omillardan biri bo‘ladi. Hozirgi kun gazeta tilining har tomonlama

rivojlanishi va imkoniyatlarining kengayishini davr taraqqiyoti bilan, xalqimiz ma'navviyatini har tomonlama o'sganligi bilan izohlash lozim.

Endilikda adabiy tilimiz normalari puxta ishlandi. Binobarin, hozirgi kun gazeta tili so'z qo'llashda ham, grammatik qo'shimchalardan foydalanishda ham, gap tuzishda ham har tomonlama yuksak darajada taraqqiy etdi.

O'zbek matbuoti tilining lisoniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ishlar o'tgan asrning 30-40-yillarda yuzaga keldi. V.V.Reshetov, A.K.Borovkov, keyinchalik M.Mirzayev, F.Abdullayev ishlarida gazeta tili leksikasidagi lingvistik xususiyatlarga oid ilmiy ishlarni ko'rish mumkin. Matbuot yili materiallari asosida tuzilgan ilk "O'zbekcha-ruscha lug'at" K.K.Yudaxin¹ qalamiga mansub.

Hozirgacha o'zbek gazetalari tilini o'rganishga oid bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, B.Turdaliyevning matbuot tilining morfologik xususiyatlari, M.Rahmonovning "Turkiston viloyati gazeti"ning sintaksisi, B.Karimovning 20-30 yillarda o'zbek adabiy tilining rivojlanish xususiyatlari, A.Abdusaidovning gazeta tili va adabiy norma muammolariga nag'ishlagan ilmiy monografiyalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, gazeta tiliga oid o'quv qo'llanmalar yaratildi, bir qator risolalar, maqolalar nashr etildi. Ushbu ishlarning mualliflari taniqli o'zbek tilshunoslaru, OAV sohasi mutaxasislaridir. Ko'rindiki, o'zbek tilshunoslida matbuot tilini o'rganish bo'yicha bir qator jiddiy ishlar qilingan. Shunga qaramasdan, bu sohaning bir qator dolzarb muammolari yanada kengroq va chuqurroq tahlilga muhtojdir. Ayniqsa, gazeta tilining lisoniy xususiyatlarini konkret janrlar bo'yicha o'rganish, gazeta tilining adabiy me'yorlarga munosabatini, bu me'yorlarning shakllanishida gazeta tilining o'rni va rolini tadqiq qilish, matbuot tili madaniyatini yanada yuksaltirishning usul va omillarini aniqlash mana shunday muammolar jumlasiga kiradi.

OAV sohasida matbuotning alohida o'z o'rni mavjud. Shuningdek quyidagi vazifalar ham muhim ahamiya kasb etadi: informativlik, targ'ibot, tashkilotchilik,

¹ Юдахин К.К. Ўзбекча-русча луҳат. –Тошкент, 1927.

tarbiyaviylik, tashviqot, reklamalilik, ta'sirchanlik. Ta'sirchanlik matbuotning ijod jarayoni bilan bog'liq. Gazetada ta'sirchanlikni ta'minlashda quyidagi xususiyatlар nazarda tutiladi: ommaviylik, obrazlilik, emotSIONallik, munozaralilik, ekspressivlik, ixchamlik, konkretlilik¹.

"Gazeta tili", "Gazeta janrlari uslubiyati" maxsus kurslari dasturi hamda "Jurnalistik ijod nazariyasi va amaliyoti (janrlar)" kursi dasturida gazeta janrlari va ularning tasnifi keltirilgan. Ularda o'zbek tilshunosligida "gazeta janrlari"ning belgilab berilganligini, janrlar tasnidagi ba'zi turli xilliklarga qaramasdan, bu sohaga bir müncha aniqliklar kiritilganligini alohida ta'kidlash lozim.

S.Muhamedov gazeta publisistikasi tarmog'i - gazeta publisistikasi janri sifatida quyidagilarni ko'rsatgan: reportaj, hisobot, intervyu, korrespondensiya, maqola, sharh, obzor, taqriz, matbuot obzori, ocherk, felyeton, pamflet, lavha².

A.Boboyeva "gazeta janrlari" mavjudligini tan olgan holda, axborot janrini ajratib ko'rsatadi. Shuningdek, olimaning felyeton va ocherkka nisbatan ishlatgan terminlari ham ("ijtimoiy-publisistik", "badiiy-publisistik") diqqatni tortadi³.

Ingliz tilida esa ilk gazeta 1702 - yilda vujudga kelgan va "Daily Caurant" nomi bilan atalgan. XIX asrdan esa ingliz gazetalari keng tarqala boshlandi. Bugungi asosiy va bosh gazeta hisoblanadigan "The times of London" va "Manchester Guardian" gazetalari ham dastlab 1785-yilda chop etilgan. Yangiliklarni tezkor yig'ilishini ta'minlaydigan telegraf ixtiro qilingandan so'ng, axborot agentliklari ko'plab xizmatlatni gazetalarga sotdilar. Bosmaxona va chop etish sohalari (asosan, web press) rivojlanganligi esa gazetalarning ko'plab adadda tarqachiga katta imkoniyat berdi. 1970-yillardagi keskin texnologiyalarning rivojlanishi ingliz gazetalarining turli xil fotosuratlarni ham chop etishga imkon berdi va ingliz gazeta ishlab chiqarish sohasining taraqqiy etishiga turtki bo'ldi.

¹ Abdusaidov A. Gazeta janlarining til xususiyatlari. Filol. Fan. Dokt.dis.avtoREF.-Samarqand, 2005, 17-b.

² Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: Фан, 1986, 86-б.

³ Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 35-b.

Davriy matbuot shakli, mazmun mohiyatidan qat'iy nazar, adabiy til me'yorlaridan chetga chiqmasligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Garchi bugunga kelib axborot globallashuv, jadallik sharoitida, davr taqozosiga ko'ra matbuotda ixtisoslashuv yuz bermoqda. Endilikda ixtisoslashuv gazeta tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Gazeta, jurnal qaysi sohaga ixtisoslashgan bo'lsa, uning tilida shu sohaga mansub terminlar, birikmalar, konstruksiyalar sezilarli darajada uchraydi. Shunga ko'ra gazeta tiliga quruq rasmiylik, siyosiy(partiyaviy)likdan tashqari, emotsionallik ham hosdir. Emotsionallik, tabiiy matn ta'sirchanligi yodda qolarliligini ta'minlaydi. Asar xoh siyosiy, xoh rasmiy, xoh ilmiy bo'lsin, baribir qaysidir darajada emotsionallikka ham ega bo'lishi lozim. Chunki tilning emotsionalligi, baholash xususiyati publitsistikaning barcha asosiy janrlariga kirib boradi. Bunga asosiy sabab publitsisning tabiatni, jamiyatdagi ahamiyati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Filol. Fan. Dokt.dis.avtoref.-Samarqand, 2005, 17-b.
2. Boboyeva A. Gazeta tili haqida. - Toshkent: Fan, 1983, 35-b.
3. Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. - Ташкент: Фан, 1986,86-б.
4. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 34 с.
5. Юдахин К.К. Ўзбекча-русча луђат. –Тошкент, 1927.